Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

# IMOM BUXORIYNING ILMIY MEROSIDA DAVLAT SIYOSATI, AXLOQ VA TARBIYANING O‘ZARO BOG‘LIQLIGI

**Xuramova Ungaloy Xolboyevna**
O‘zMU, Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi
(ma’naviyat asoslari) mutaxassisligi magistranti
E-mail: xurramxurramova@gmail.com
Telifon: + 99897-102-18-78
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20326809

**Annotatsiya**: Mazkur maqolada buyuk muhaddis Imom Buxoriyning ilmiy merosida ifoda etilgan axloqiy qadriyatlarning davlat siyosati, axloq va tarbiya tizimi bilan o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilinadi. Tadqiqotda “Al-Jome’ as-Sahih” va “Al-adab al-Mufrad” kabi asarlar asosida rahbar mas’uliyati, adolat, halollik, jamoaviy madaniyat, oilaviy tarbiya va ijtimoiy axloq tamoyillarining mazmuni yoritiladi.

**Kalit so‘zlar**: Imom Buxoriy, davlat siyosati, axloq, jamiyat barqarorligi, yoshlar tarbiyasi, ma’naviy qadriyatlar, adolat, ijtimoiy madaniyat.

**Аннотация:** В данной статье анализируется взаимосвязь этических ценностей, представленных в научном наследии Имама Бухари, с государственной политикой, общественной моралью и системой воспитания. Основой исследования являются такие произведения, как “Аль-Джоми ас-Сахих” и “Аль-Адаб аль-Муфрад”, в которых рассматриваются ответственность руководителей, справедливость, честность, общественная культура, семейное воспитание и социальная этика.

**Ключевые слова:** Имам Бухари, государственная политика, этика, стабильность общества, воспитание молодежи, духовные ценности, справедливость, социальная культура.

**Annotation:** This article analyzes the interconnection of ethical values expressed in the scientific heritage of Imam Bukhari with state policy, public morality, and the educational system. Works such as Al-Jami’ as-Sahih and Al- Adab al-Mufrad serve as the basis of the study, highlighting leadership responsibility, justice, honesty, community culture, family upbringing, and social ethics.

**Keywords:** Imam Bukhari, state policy, ethics, societal stability, youth upbringing,moral values, justice,community culture.

Ma’limki, globallashuv va axborot maydonining kengayishi sharoitida davlat siyosatining samaradorligi nafaqat iqtisodiy yoki huquqiy islohotlarga, balki fuqoralarning ma’naviy va axloqiy yetukligiga bevosita bog‘liqdir. Jamiyat axloqi va tarbiya tizimi hamisha davlat siyosatining uzviy qismi hisoblangan. Tarbiyaviy siyosat fuqoralarning axloqiy saviyasini yuksaltirish, yoshlarni ma’naviy barkamol inson qilib tarbiyalash, jamiyatda tartib-intizom va ijtimoiy mas’uliyatni kuchaytirish vazifalarini o‘z zimmasiga oladi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ajdodlarimiz merosi har qanday jamiyatning asosiy sohalarida nazariy asos vazifasini bajaradi va doim dolzarb hisoblanadi. Avvalo, davlat siyosatining shakllanishida fuqarolik jamiyati institutlari – nodavlat va notijorat tashkilotlar, kasaba uyushmalari hamda boshqa ijtimoiy strukturalarning samarali amalga oshirilishi muhim hisoblanadi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar va elektron hukumat tizimlarining joriy qilinishi davlat boshqaruvining shaffofligi va fuqarolar bilan o‘zaro aloqasini yaxshilashga xizmat qilmoqda. Bu davlatning siyosiy, ijtimoiy va

iqtisodiy barqarorligini ta’minlashda jamiyatning axloqiy qadriyatlarga ham e’tibor qaratilishi zarurligini ko‘rsatadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Buyuk ajdodlarimizga xos azmu shijoat, xalqimizning metin irodasi, tobora ulg‘ayib kelayotgan barkamol avlodimizga tayanib, jamiyatimiz hayotini tubdan yangilash yo‘lini izchil davom ettirish – eng dolzarb vazifadir”[1].

Xususan, Imom Buxoriyning ilmiy merosi adolatli siyosatni shakllantirish, axloq va tarbiya tizimini uyg‘unlashtirishda jamiyat barqarorligini ta’minlash uchun muhim tarixiy manba sifatida baholanadi. Hozirgi murakkab ijtimoiy davrda Sharq mutafakkirlarining ilmiy merosiga qaytish va Imom Buxoriyning axloq va odobga oid tarbiyaviy noyob asarlaridan foydalanish jamoatchilik ongini shakllantirishda va jamiyatni tarbiyalashda, adolatli boshqaruv hamda insoniylik ma’naviyatini rivojlantishda ham dolzarbligini yuqotmagan[2].

Davlat siyosati va jamoatchilikda avvalo fuqarolarning faollashuvi axloq va tarbiya bilan chambarchas bog‘liqdir. Ularning asosiy vazifasi davlat siyosatini shakllantirishda ishtirok etish, jamiyat axloqi va tarbiyaviy tizimini amalga oshirish, jamoatchilik fikrini uyg‘otish va tahlil qilishdir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, davlat va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasida samarali hamkorlik mavjud bo‘lganda, siyosat qabul qilish jarayonining shaffofligi va samaradorligi sezilarli darajada oshadi. Ayniqsa, davlat siyosatida axloqiy qadriyatlarning o‘rni kuchayib borayotgan bugungi kunda jamoatchilik ishtiroki faqat tavsiya beruvchi yoki nazoratchi rolida emas, balki qaror qabul qilish jarayonining bir qismi sifatida qaralmoqda. Bundan asosiy maqsad – Sharq mutafakkirlarining ilmiy va tarixiy merosini zamonaviy ijtimoiy-siyosiy rivojlanish talablariga mos ravishda o‘rganib chiqish va amaliyotda qo‘llashning ilmiy asoslarini yoritishdir. Shu bilan birga, jamoatchilikda axloqiy va siyosiy barqarorlikni ta’minlash va fuqarolar orasida davlatga nisbatan ishonchni mustahkamlashda muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Milliy qadriyatlar doimo tarix davomida jamiyatning axloqiy me’yorlarini shakllantirib kelgan va bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan[3].

Alohida ta’kidlash mumkinki, Sharq mutafakkiri va alloma Imom Buxoriyning ilmiy merosida jamiyatdagi axloqiy kamolotni davlat barqarorligining muhim omili sifatida ko‘rsatadi. Imom Buxoriyning ilmiy merosida mashhur bo‘lgan “Al-jome’ as-sahih” va “Al-adab al-mufrad” asarlarida keltirilgan hadislar shaxsning ma’naviy kamoloti, jamiyatning barqarorligi va adolatli siyosatning samaradorligi o‘rtasida uzviy bog‘liqlikni yoritadi. Uning asarlarida ilgari surilgan vatanparvarlik, insoniylik, mehr-oqibat kabi axloqiy tamoyillar jamiyatda barqarorlikni ta’minlashda yosh avlodni ma’naviy va tarbiyaviy jihatdan yetuk qilib tarbiyalash, shuningdek, davlat boshqaruvining taraqqiyotini oshirishda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi.

Imom Buxoriy merosida davlat siyosati, jamiyat axloqi va tarbiyaning bir-biri bilan o‘zaro uzviy bog‘liq ekanligi ko‘rinadi. Jamiyat axloqi yaxshi bo‘lmasa, davlat siyosati barqaror bo‘lmaydi; davlat boshqaruvi adolatga tayanmasa, jamiyat axloqiy inqirozga uchraydi; tarbiya zaif bo‘lsa, kelajak avlod ham siyosiy va axloqiy jihatdan yetuk bo‘la olmaydi. Shunga ko‘ra, hadislarida bu bog‘liqlik qo‘yidagi uchlikda ifodalanadi:

**1.Adolatli davlat – siyosiy barqarorlik poydevori;**

**2. Axloqiy jamiyat – davlat siyosatining tayanchi;**

**3. Tarbiyalangan avlod – jamiyatning davomiyligi va istiqboli**.

Buxoriyning fikricha, ushbu uch omil uyg‘un bo‘lgandagina jamiyatda tinchlik, barqarorlik va yuksalish qaror topadi. Shu tarzda, Buxoriyning ilmiy merosida davlat siyosati, jamiyat axloqi va tarbiya o‘zaro bog‘liqdir va bir sohani ajratib ko‘rish amaliy jihatdan imkonsiz hisoblanadi[4].

---

[1] Mirziyoyev Sh.M. Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: “O’zbekiston”, 2021. – B.107.
[2] Karimov B. Imom Buxoriy merosi va axloqiy ta’limotlari. – Toshkent: O’zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2015. – B. 56-78.
[3] Qosimov Sh. Islom axloqi va davlat boshqaruv masalalari. – Toshkent: “TDShI nashriyoti”, 2020. – B. 41.
[4] Usmonov A. Jamiyat axloqi va ma’naviyat. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2015. – B.56 – 78.

Imom Buxoriy asarlarida adolatli rahbarning xalq oldidagi mas'uliyati va amaldorlarning axloqi doimiy ravishda ta'kidlangan. "Al-Jome' as-Sahih (Sahihi al-Buxoriy)" hadislar to'plami axloqiy tamoyillarini yorituvchi, ijtimoiy mezonlarini belgilovchi umuminsoniy qadriyatlar namunasidan iborat eng muhim manbalaridan biri bo'lib, unda nafaqat ibodat masalalari, balki jamiyat boshqaruvi, ijtimoiy munosabatlar va rahbarlik odobi haqida keng qamrovli hadislar keltirilgan. "Sahih al-Buxoriy" asarining eng avvalo "Iymon kitobi"da iymon halovati, salomni yoyish, insonlarga tili va qo'li bilan ozor bermaslik, amallar niyatga bog'liq bo'lishi, farz amallari yozilgan bo'lib, so'nggi "Ilm kitobi"da ilmning fazilati, hadis ilmi, ulamolardan ilm olish va ibodat amallaridan har biri boblarga bo'linib batavsil bayon etilgan. Shu bilan birga, "Savdo kitobi"da ham har bir kasb egalarining iqtisodiy savdoda halol bo'lishi keng yoritilgan. Ijtimoiy jamoada rahbarlarning vazifasi - adolatni qaror toptirish, zulm qilmaslik, jamiyatda axloqiy va ijtimoiy uyg'unlikni ta'minlashdir. Ushbu tamoyil davlat boshqaruvida xalq manfaatiga xizmat qilishi lozimligini bildiradi. Bu fikr bugungi kunda zamonaviy siyosatshunoslikda "xalqparvar boshqaruv" modeli sifatida tan olingan[5].

Imom Buxoriy manbalarda axloqiy qadriyatlarni jamiyat barqarorligining asosiy tayanchi sifatida ko'rsatgan. "Al-adab al-Mufrad" asarining ijtimoiy ahamiyati jamiyatdagi insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda o'z aksini topadi. Ushbu nodir ilmiy meros 645-bob hamda "1360" ta hadisdan iborat bo'lib, har bir bobda jamiyatning kundalik hayoti uchun zarur bo'lgan odob, muomala, qo'shnichilik, saxovat va halollik kabi fazilatlar keng yoritilgan. Hadislarning birida "Mo'minlarning imonda eng mukammali - axloqi eng go'zalidir" deyilgan bo'lib, xalqning axloqiy pokligi davlatning ma'naviy kuchini belgilashni ta'kidlaydi.

Shuningdek, Imom Buxoriyning ilmiy merosining har bir asarida axloqiy tarbiya masalasi alohida e'tibor bilan yoritilgan. Axloqiy jihatdan mukammal tarbiyalangan fuqoralar jamiyat axloqini mustahkamlash, ijtimoiy birdamlikni oshirish va davlat siyosatini qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi.

Tarbiya – axloqiy va siyosiy barqarorlikni shakllantiruvchi asosiy omildir. Imom Buxoriyning "Al-Adab al-Mufrad (Odob durdonalari)" asari barcha uchun odob-axloq jamlanmasidan iborat bo'lib, hadislarda insonning ma'naviy kamoloti, tafakkur va dunyoqarashning kengligi, ilmiy bilimlarning ta'lim-tarbiyaga aloqadorligi va yoshlarga tarbiyaviy ta'siri muhokama qilingan. Eng avvalo odob-axloq ilmdan boshlanadi. Asarning ijtimoiy ahamiyati shundaki, jamiyatda insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda o'z aksini topadi. Oilaviy mas'uliyat, ota-ona hurmat va qarindoshlarga silai-rahm ko'rsatish, farzand tarbiyasi haqidagi hadislar jamiyat kelajagida axloqiy tarbiyaning o'rnini belgilaydi. Hadislarda "Farzandlaringizga hurmat va odobni o'rgating" deb yozilgan ibratli iboralar davlat siyosati va jamiyat axloqi uchun ham muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi[6].

Hozirgi vaqtda davlat siyosati va jamoaviy muhokamalarda axloqiy tarbiyaga oid tartib-qoidalar ijtimoiy tarmoqlarda munozaralar bilan qaror qabul qilish jarayonini fuqarolar uchun ochiq qilgan. Shu orqali davlat siyosatining axloqiy qadriyatlarini amalga oshirish jarayonida fuqarolar ishtirok etadi, ularning fikrlari va ehtiyojlari hisobga olinadi. Bu esa davlat va jamiyat o'rtasidagi ishonchni mustahkamlashga yordam beradi. Xalqaro tajribada shuni ko'rsatadiki, ko'plab rivojlangan davlatlarning boshqaruv tizimida jamoatchilik ishtiroki muvaffaqiyatli joriy etilgan. Masalan, fuqarolar o'z muammolariga echim topish va jamiyatda shaffoflikni ta'minlash va elektron xizmatlar orqali samaradorlikni oshirish bo'yicha ilg'or tajribaga ega bo'ladi. Bu tajriba vatanimiz O'zbekiston kabi rivojlanayotgan davlatlar uchun ham muhim model bo'lib xizmat qilishi mumkin. Jamoatchilikning faolligi, davlat qarorlariga ta'siri va raqamli transformatsiya orqali bu jarayonlar davlat va jamiyat o'rtasida barqarorlikni ta'minlaydi [7].

[5] Imom Buxoriy. Al-Jome' as-Sahih. – Toshkent: "Islomiyya", 2005. – B. 25-302.
[6] Imom Buxoriy. Al-Adab al-Mufrad. – Toshkent: "Mavorounnahr", - 2021. – B.78.
[7] Azimov R. O'zbekistonda ma'naviyat va tarbiya siyosati. – Toshkent: "Ma'naviyat", 2020. – B. 23-78

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Imom Buxoriy ilmiy merosida davlat siyosati, jamiyat axloqi va ta'lim-tarbiya tizimi o'rtasida doimo bir-biriga uzviy bog'liqligini amalda ko'rsatish hamda ilmiy jihatdan o'rganish va tahlil qilishda beqiyos manba hisoblanadi. Ayniqsa, allomaning "Al-Adab al-Mufrad" asari insoniyat uchun kerak bo'lgan barcha axloqiy tamoyillar jamlanmasidan iborat bo'lgan noyob kitobdir. Asarda keltirgan hadislar nafaqat diniy va ma'naviy, balki ijtimoiy, siyosiy va tarbiyaviy jihatdan ham dolzarbdir.

Imom Buxoriyning ilmiy merosida tarbiya masalalalari alohida e'tibor bilan yoritilgan bo'lib, kelajak avlodni insonparvarlik va jamoaviy mas'uliyat ruhida tarbiyalashga qaratilgan. Axloqiy jihatdan yetuk tarbiyalangan fuqoralar esa jamiyatni mustahkamlashda, ijtimoiy birdamlikni oshirishda va davlat siyosatini qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi. Zamonaviy ta'lim tizimida va jamiyatda tarbiyaning doimo bir-biri bilan o'zaro bog'liqligi manbalarda ham batavsil keltirilgan. Shu sababli, Imom Buxoriyning ilmiy merosidan foydalanish hozirgi kunda ham nazariy va amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi hamda davlat siyosatida jamiyatning barqarorligi va axloqiy ta'lim-tarbiyaning uyg'un rivojlanishi uchun asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021.
2. Karimov Sh. Islom madaniyati va davlat boshqaruvi. – Toshkent: "Universitet" nashriyoti, 2018.
3. Hasanov I. Islomiy axloq va davlat boshqaruvi. – Toshkent: "Fan", 2016
4. Usmonov A. Jamiyat axloqi va ma'naviyat. – Toshkent: "Ma'naviyat", 2015
5. Qosimov Sh. Islom axloqi va davlat boshqaruvi masalalari. – Toshkent: "TDSHI" nashriyoti, 2020.
6. Imom Buxoriy. Al-Jome' as-Sahih. – Toshkent: "Islomiya" nashriyoti, 2005.
7. Imom Buxoriy. Al-Adab al-Mufrad. – Toshkent: "Mavorounnahr" nashriyoti, 2021.
8. Azimov R. O'zbekistonda ma'naviyat va tarbiya siyosati. – Toshkent: "Ma'naviyat" nashriyoti, 2020.